

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> November - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## QUVASOY TUMANI PARRANDACHILIK XO'JALIKLARIDA TOVUQ KOLIBAKTERIOZINI OLDINI OLIHDA ANTIBIOTIKLARNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI ANIQLASH

Xo'jaxonov Shoxruzxon Idirisxo'ja o'g'li  
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti  
Toshkent filiali mustaqil izlanuvchisi

Davlatov Ravshan Berdiyevich  
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,  
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti professori

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada Farg'ona viloyati Quvasoy tumani parrandachilik xo'jaliklarida tovuq kolibakteriozini oldini olish uchun antibiotiklarning samaradorlik ko'rsatkichlarini aniqlashga oid ma'lumotlar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Oflosan, Aliseryl, ws E.coli, zoogigiena, klon, mutant, antigen, fermentativ, virulentlik.

### **Аннотация:**

В данной статье представлена информация по определению эффективности антибиотиков для профилактики колибактериоза кур в птицефабриках Куvasойского района Ферганской области.

**Ключевые слова:** Офлосан, Алисерил ws, E.coli, гигиена животных, клон, мутант, антиген, ферментативный, вирулентность.

### **Annotation:**

This article describes data on determining the effectiveness of antibiotics to prevent chicken colibacillosis in poultry farms in the Kuvasoy district of the Fergana region.

**Keywords:** Oflosan, Aliseryl ws, E.coli, zoohygiene, clone, mutant, antigen, enzymatic, virulence.



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> November - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

**Mavzuning dolzarbligi.** Butun dunyodagi kabi Respublikamizda ham parrandachilik sohasini rivojlantirish bo'yicha bir qator salmoqli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Yaratilgan sharoit va imkoniyatlar chorvachilik sohasi, shuningdek parrandachilik tarmog'i mutaxassisleri hamda ilmiy tadqiqotchilarni zimmasiga aniq vazifalar qo'yib, katta mas'uliyatlarni yuklaydi. Parrandachilikda mavjud imkoniyat va ishlab chiqarish zahirasidan to'la foydalanilmasdan kelinmoqda. Bu borada muhim vazifa parrandalarni sog'lom asrab o'stirish va mahsuldorligini oshirish hisoblanadi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, parrandachilikka sezilarli darajadagi iqtisodiy zarar ayrim yuqumli va invazion kasalliklar hamda parrandalarni asrash va oziqlantirish bilan bog'liq kamchiliklar oqibatida sodir etilmoqda. Xususan, kolibakterioz kasalligi bilan kasallangan parrandalar o'rtasida o'lim ko'rsatkichi 75 % gacha kuzatiladi. Shuning uchun ham parrandalarning kolibakterioz kasalligini epizootologiyasini, kechish xususiyatlarini va tashhis usullarini o'rganish, davolash va oldini olishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Kasallik vaqtida organizmida moddalar almashinuvi intensiv kechganligi sababli to'liq ratsionli oziqa bilan oziqlantirish maqsadga muvofiqdir. Tovuqlar sanoat asosida boqilib asralayotganda bosh sonlari ko'p bo'lib ular cheklangan joylarda, sun'iy yorug'likda to'shamalar ustida yoki simli katakchalarda saqlaniladi. Inkubatsiyadan ochib chiqayotgan jo'jalar bir kunligidan boshlab har haftada bir marta to 120 kunligigacha, ya'ni katta tovuqlar guruhiga o'tguniga qadar profilaktik emlash rejasi asosida infeksiyon kasalliklarga qarshi emlanadi. Tayyor oziqalar texnika yordamida mexanik moslamalar orqali tarqatiladi. Chunki, kasallik vaqtida E.coli-ichak tayoqchalari ichak tizimida rivojlanganligi uchun ozuqa moddalarning so'rilishiga to'sqinlik qiladi va so'rilish jarayonlarining qiyinlashuvi hisobiga, ular o'sish va rivojlanishdan ortda qoladi. Kelajakda bunday parrandalarning mahsuldorlik ko'rsatkichi past bo'ladi. Ularni davolash uchun sarf xarajatlar miqdori ortib, xo'jalikka iqtisodiy zarar yetkazadi. Shuning uchun ham bu kasallikni o'rganish, oldini olish va davolash tadbirlarini doimo takomillashtirib, antibiotiklarni qo'zg'atuvchilarning sezgirlik darajasiga moslab qo'llab, uning oldini olish orqali parrandalarning bosh sonlarini saqlab qolib, yuqori mahsuldorlikka erishish veterinariya xizmatining dolzarb vazifasi bo'lib hisoblanadi.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> November - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

**Tadqiqotning material va metodlari.** Tadqiqotlar jarayonidagi profilaktika tadbirlari Farg‘ona viloyati Quvasoy tumani “QUVASOY PARRANDA FAYZ” fermer xo‘jaligida parvarish qilinayotgan yosh tovuqlar orasida o‘tkazildi.

Foydalanilgan antibiotiklar: - Aliseryl ws – tarkibi oksitetratsiklin, qo‘llanilishi- og‘iz orqali suv bilan berish uchun. 1 gr preparat 1 litr suvda eritilib, 5-7 kun davomida beriladi. Gollandiya maxsuloti.

- Oflosan - tarkibi ofloksatsin, qo‘llanilishi- og‘iz orqali suv bilan berish uchun. 1ml preparat 1litr suvda eritilib, 3-5 kun davomida beriladi. Rossiya federatsiyasi, OOO“ Apitsenna” maxsuloti.

Xo‘jalik sharoitida ushbu mavzuda o‘tkaziladigan ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish uchun dastlab «LOMANN SENDI» zotiga mansub 80 kunlik 45 bosh yosh tovuqlar tanlab olindi, va 3 guruhga 15 boshdan taqsimlandi. Xar bir guruhdagi yosh tovuqlar ham xo‘jalik sharoitida asralib, birinchi tajriba guruhiga 5 kun davomida Oflosan antibiotigi 1ml + 1 litr suvga aralashtirilib berildi. Ikkinchi tajriba guruhidagi yosh tovuqlarga esa 7 kun davomida Aliseryl ws antibiotigi 1 gr + 1 litr suvga aralashtirilib berildi. Uchinchi guruhdagi yosh tovuqlar esa o‘zaro taqqoslash uchun nazorat guruhi vazifasini o‘tadi.

So‘ngra tajriba guruhidagilarning klinik holati va o‘shish rivojlanishi nazorat guruhidagi parrandalarga taqqoslab taxlil qilindi. Amaliy sinov tajribasi o‘tkazilgan ushbu guruhlardagi yosh tovuqlar muntazam nazorat qilinib borildi.

### Tadqiqot natijalari:

Birinchi tajriba guruhiga Oflosan antibiotigi qo‘llanilganda yosh tovuqlarning saqlanuvchanlik darajasi 100 % ni, tirik vaznining o‘shishi esa 128,5 % ni tashkil qildi.

Ikkinchi tajriba guruhiga esa Aliseryl ws antibiotigi qo‘llanilganda yosh tovuqlarning saqlanuvchanlik darajasi 80 % ni, tirik vaznining o‘shishi esa 122,8 % ni tashkil qildi.

Uchinchi nazorat guruhidagi yosh tovuqlarning saqlanuvchanlik darajasi esa 66 % ni, tirik vaznining o‘shishi esa 78,8 % ni tashkil qildi.



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> November - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## Farg‘ona viloyati Beshariq tumani “QUVASOY PARRANDA FAYZ” parrandachilik xo‘jaligida kolibakteriozni oldini olishda antibiotilarning samaradorlik ko‘rsatkichlari

| T/r | Guruhlar nomi | Preparatlar nomi | Dozasi va qo‘llash uslubi | Tovuqlar bosh soni | Saqlanuvchanlik (bosh hisobida) | Saqlanuvchanlik (% hisobida) |
|-----|---------------|------------------|---------------------------|--------------------|---------------------------------|------------------------------|
| 1   | Tajriba       | Oflosan          | 1 ml-1 litr suv bilan     | 15                 | 15                              | 100                          |
| 2   | Tajriba       | Aliseryl ws      | 1 gr – 1litr suv bilan    | 15                 | 12                              | 80                           |
| 3   | Nazorat       | -                | -                         | 15                 | 10                              | 66                           |

Shunday qilib, birinchi tajriba guruhida saqlanuvchanlik ko‘rsatkich 100 % ni tashkil etib, antibiotik olmagan nazorat guruhiga nisbatan 34 % yuqori natijaga erishildi. Ikkinchi tajriba guruhida esa saqlanuvchanlik ko‘rsatkichi 80 % ni tashkil etib, antibiotik olmagan nazorat guruhiga nisbatan 26 % yuqori natijaga erishildi.

### Xulosalar

Parrandachilik xo‘jaliklarida jo‘jalarni zoogigiyenik talablarga mos keladigan binolarda saqlash, oziqlantirish sifatini yaxshilash va sanitariya talablarini bajarish kolibakterioz kasalligini kelib chiqishini oldini olishda muhim vazifalardan hisoblanadi.

- Oflosan antibiotigini ishlab chiqarish sharoitida parrandalarning kolibakterioz kasalligini oldini olishda qo‘llaganda yosh tovuqlarning saqlanuvchanlik darajasi 100 % ko‘rsatkichda qayd etildi,

-shuni takidlash joizki, Oflosan antibiotigi jo‘ja va tovuqlarning saqlanuvchanlik darajasini oshiribgina qolmasdan, ularning tirik vaznini ortishi va meyorda o‘sib rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganligini inobatga olib, ushbu muolajani parrandachilik xo‘jaliklarida kolibakterioz kasalligini oldini olish va davolash maqsadida qo‘llash tavsiya etiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bakirov B.B., Ro‘ziqulov N.B. va boshqalar “Hayvonlar kasalliklari” (ma’lumotnoma) 2015 yil.
2. Bozorov X.K., A.Xo‘jamshukurov., X.Esonov. Tovular kolibakteriozi va pullorozini davolash hamda oldini olishda yangi antibiotiklarning samaradorligi. J. — Zooveterinariya №4. 2012 yil. 12-13 bet.

## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> November - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

3. Bo‘tayeva I.M., Salimov H.S., Davlatov R.B. On The Diagnosis Of Mixed Bacterial Infections Of Birds International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 9s, (2020), pp. 2308-2315
4. Davlatov R.B., Ibragimov D. Jo‘jalarning eymerioz va kolibakterioz kasalliklarining assotsiativ kechishi va profilaktika chora tadbirlari. Sam MI iqtidorli yoshlarning ilmiy ishlar to‘plami. Samarqand 2006 yil.
5. Davlatov R.B., Salimov X.S., Xo‘djamshukurov A.N. “Parrandalar kasalliklari”, O‘quv qo‘llanma, Samarqand-2018.
6. Davlatov R.B., Nasimov SH.N., Niyozov X.B., Jabborov SH.A., Xo‘djamshukurov SH.A., Safarov X.A. “Parranda kasalliklarini profilaktikasi va davolash bo‘yicha TAVSIYALAR” Toshkent 2019 yil.



# E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E-CONFERENCE  
SERIES